



SCIENCE TIME

BIR DO`STIM DUTORDA, BIR DO`STIM TORDA...

**MANZURA MATNAZAROVNA
PIRNAZAROVA**

Urganch Davlat universiteti. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

E-mail: manzuramatnazarovna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoir Omon Matjonning qo`shiq bo`lib kuylangan she`rlari, kimlar kuylagani, she`rlarining mohiyati haqida gap boradi. Omon Matjon she`rlari qo`shiq sifatida shuhrat topishi, xalq qalbiga yana ham chuqurroq singib borishida uning atrof-muhit, taniqli hofizlar bilan do`stona munosabatining ham o`z o`rni borligi maqolada ta`kidlanadi.

Kalit so`zlar: ohang, musiqa, aruz, she`r, mumtoz so`z, mumtoz musiqa.

Аннотация. В этой статье рассказывается о стихах поэта Амона Матджона, спетых как песни, о том, кто их пел, и о значении его стихов. В статье подчёркивается, что дружеские отношения поэта с известными хафизами и к окружающей среде играли свою роль при том, каким образом его стихи стали популярными среди людей как песни.

Ключевые слова: мелодия, музыка, аруз, стихотворение, классическое слово, классическая музыка.

Abstract. This article talks about poet Amon Matjon's poems sung as songs, who sang them, and the meaning of his poems. It is noted that Amon Matjon's poems became famous as songs and penetrated even deeper into the hearts of the people due to his friendly relationship with the environment and famous hafiz.

Key words: melody, music, aruz, poem, classical word, classical music

KIRISH.

Ko`pchilik mutaxassislar ham, ijodkorlar ham *qo`shiqchi shoir* atamasini xushlamaydi. Haqiqatan, bu ifoda *qo`shiqni* ham, *she`rni* ham obro`sizlantirib, bu ikki ulug`vor tushunchaning zamiridagi ohorni to`kkanday bo`ladi. Vaholanki, shoirlar ayrim hollarda, hatto she`r tushunchasi doirasiga sig`magan tuyg`ularini qo`shiq so`zi bilan anglatishga intiladilar:

Bag`ringga bargingdek mitti qushchalar

Mangu qo`shiqlarni aytib keladi. [SS, 154]

D.Quronov Muhammad Yusuf she`riyati haqida gapira turib, to`g`ri ta`kidlagandek, bu kabi tasavvur va ifodalar "she`riyat bilan qo`shiqchilik aloqalari nechog`li mustahkam va ahamiyatli ekanini anglamaslikdan kelib chiqadi". Olim o`z fikrini asoslash maqsadida davom etadi: "Holbuki, she`r – ohanglar qanotida



SCIENCE TIME

qalb qulog‘imizga kirib boruvchi nutq, qani uni musiqiylikdan mahrum qilib ko‘ring-chi: bu holda she‘r ham yo‘q bo‘ladi. Zero, musiqiy ohang – she‘rning zotiy sifati. Qo‘shiqqa kelsak, u ham she‘r, faqat unda o‘sha zotiy sifat g‘oyat bo‘rttirilgandir... Aruziy ohanglar bilan maqomlarning nechog‘li yaqinligi, hazrat Navoiydan tortib Feruzga qadar ko‘p mumtoz shoirlarimiz musiqiyda ham mohir bo‘lganlari, shoh Mashrab g‘azallarini setor jo‘rligida xonish qilib yurganini eslatmasak ham bo‘lar”. [7.112]

Omon Matjon (va boshqa yuksak salohiyatli shoirlarimiz) qanchalik ko‘p she‘rlari qo‘shiq qilib kuylanmasin, she‘r yozganlar. Ularning she‘rlari qo‘shiq qilib kuylangani she‘riyatining fazilati, xolos. Shoir hislari jo‘sh urgan onlarda “Tilim she‘rda, qo‘lim torda shu kunlar” – deydi. Omon Matjon tabiatan musiqa shaydosigina emas, uni bir qadar tushunadigan, so‘zdan so‘zning farqi borligini anglagani kabi ohangdan ohangni ajrata oladigan zakiy inson ham edi. Zero, ko‘pchiligimiz qadim ohanglarda suratlardagi kabi rang; arg‘uvon gullardagi kabi o‘ziga bir bo‘y; azim tog‘lardagiday viqor borligini his qilmaymiz. Omon Matjon esa bir kuyning o‘zida shodlik va g‘am ziddiyatini ko‘ra oladi. Ba‘zan bu xislati she‘rlarida bo‘y ko‘rsatib qoladi. Shoir “Saqili navo” she‘rini Xorazmning mashhur “Saqili navo” kuyini Ortiq Otajonov dutorda, Komil Avazov torda ijro etganlarida...” – deya izoh berar ekan, yozadi:

Bir do‘stim dutorda, bir do‘stim torda

“Saqili navo”ni chalgan chog‘inda.

Qalxim goh nurlarga oshufta bo‘ldi,

goh qoldi qora bir g‘amning dog‘inda [IYo, 275.]

METODLAR.

Omon Matjon – adabiyot va san‘at bilimdoni. Bu uning qalami bilan yaratilgan obrazlar silsilasi, shu bilan birga timsollarga jilo berishida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Omon Matjon, nazarimizda, shunday muhim va zarur fikrni aytadiki, agar satr qa‘ridagi haqiqatni anglab yetib, amal qilsak, dunyoqarashimiz biz his qilmagan qadar darajada o‘zgarib, hayotimiz ham boshqacharoq bo‘lishi



SCIENCE TIME

muqarrar edi: “Aylanur oyina bu, hech bitta ish topmas pana”. Shoirning qo`shiq bo`lib qalblarga yetib borgan she`rlari buning isbotidir. Tasavvur qilingki, har kim har birimiz davr oyinasida ko`rinib turishimiz, hech bir odam panada qolmaligi, zarra miqdoridagi yaxshilik ham, zarra miqdoridagi yomonlik ham javobsiz qolmasligini his qilsak, har amalimiz butun borliqqa ko`rinishi muqarrarligini anglab yetsak, ishonsak, bilsak, adabiyot va san`at o`z vazifasini bajargan bo`ladi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Shoir bekorga hayotning o`zini “mumtoz musiqa” deb ta`riflaymaydi. Birinchidan, bu she`r 1981 yilda yozilganini eslaylik. O`sha davr tilida *klassik musiqa* birikmasiga o`zbekona ruh berib, *mumtoz musiqa* ifodasini topishning o`zi tahsinga loyiq edi. *Mumtoz* so`zi o`zbek tilining izohli lug`atida o`sha davrdayoq darj etilgan bo`lishiga qaramay, u tom ma`noda ancha keyin – saksoninchi yillar oxiriga borib “tirildi”. Muhimi, shoir shu kuy zalvorini his qilish barobarida g`oyat falsafiy xulosa chiqaradi:

Mumtoz musiqadir hayot aslida,
unda har bir inson jarangdir o`zga.

Demak, kuy yaralmas, yuksalmas ohang,
yaqin bo`lolmasak bir-birimizga.

Ikkinchidan, Omon Matjon she`rlari qo`shiq sifatida shuhrat topishi, xalq qalbiga yana ham chuqurroq singib borishida uning atrof-muhiti, taniqli hofizlar bilan do`stona munosabatining ham o`z o`rni bor. Bular Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyszukurov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov, Sherali Jo`raev, G`ulomjon Yoqubov, Sul-tonpohsha O`daeva kabi taniqli san`atkorlar edi. Shoir ijodiga, ayniqsa, Komiljon Otaniyozov ta`siri kuchliligini uning o`z so`zlari bilan ifoda etganimiz ma`qul. Shunda, nazarimizda, bu ta`sir kuchini o`z me`yorimiz bilan o`lchashga hojat qolmaydi. Omon Matjon suhbatdoshi Go`zal Begimning “Siz yozgan “Avvalgilarga o`xshamas” bilan “Ustina” radifli mashhur muxammaslar she`r bo`lib, qo`shiq bo`lib yurtimizda kirib bormagan uy, bulardan sel bo`lib oqmagan qalb bo`lmasa kerak...” so`zlaridan keyin shoir “O`zi hayotim



SCIENCE TIME

davomida ikkitagina muxammas – Navoiy va Ogahiy g‘azallariga muxammas bog‘laganman. “Avvalgilarga o‘xshamas”ni mashhur san‘atkor Komiljon Otaniyozovdan ta’sirlanib yozganman. Bir to‘yga borganda Komiljon aka qo‘shiq aytgan: “Ko‘nglim ichra dardu g‘am avvalgilarga o‘xshamas, Kim ul oying hajri ham avvalgilarga o‘xshamas”. Bu qo‘shiqni eshitib bir necha kun o‘zimga kela olmaganman. Avvaliga Navoiy hazratning kitobidan bu muxammasni qayta-qayta o‘qib yurdim, keyin shu muxammas yozildi. [5.] 1975 yil noyabrda Komiljon Otaniyozov vafoti shoir ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Omon Matjon shu munosabat bilan marsiya yozdi. Shoir, bu marsiya, albatta, ustozning qaysidir bir shogirdi tomonidan qo‘shiq qilib kuylanishini bilgan holda, unda she’rni omma shuuriga moslamaydi, ya’ni unda bugungi kunda odatiy bo‘lib qolgan Zuhra Mamadalievaning “Qo‘shiqchi va shoir” hajviyasida [6.] aks etgan she’rni ohangdosh so‘zlar tizimiga aylantirish qusuri ko‘zga tashlanmaydi:

Yo‘lga chiqding, qo‘lda toring ko‘rinmas,

Komiljonim, qayga ketib borasan?!

Ne manzilga, ne makonga bilinmas,

Ayt, ustozim, qayga ketib borasan...

Bu she’r Rahmatjon Qurbonov tomonidan kuylanib muxlislar e’tiborida bo‘lib keldi. Rahmatjon Qurbonov vafotidan keyin esa uning ukasi Shixnazar Qurbonov xuddi shu she’rni “Komiljonim” o‘rniga “Rahmatjonim” degan o‘zgarish bilan akasi bastalagan ohangda ijro qildi va bu ijro internet sahifalaridan joy oldi. Shuncha ko‘plab tahsinlarga boy izohlar ichida bizning ko‘nglimizdagi fikr Hakimboy Mo‘minov ismli foydanuvchi tomonidan bildirilgan. Unda shunday deyiladi: “Shixnazar, albatta, bu qo‘shiqdagi Komiljon o‘rniga Rahmatjonni qo‘yib, yaxshi niyatda aytgansan. Lekin san‘atda buni ko‘chirmachilik deydi. Bu, shu she’rni yozgan rahmatlik Omon Matjon, buyuk san‘atkor Komiljon Otaniyozovlar ruhiga ham hurmatsizlik bo‘ladi. Shuning uchun bu qo‘shiqni internetga qo‘yishdan oldin o‘ylash kerak edi. So‘zsiz Rahmatjon shunday eslash va qo‘msashlarga loyiq, lekin, afsuski, uning zamondoshlaridan Omon Matjonlar



SCIENCE TIME

chiqmadi. Agar chiqqanda shu paytgacha yaxshi bir marsiya yozardi. Hozirgi kuyinishlar “joyi jannatda bo‘lsin”dan naryoqqa o‘tmayapti. Afsus... Mening maslahat o‘rnidagi e’tirozimni to‘g‘ri qabul qilarsan, degan umiddaman”. Bu kabi o‘rinli so‘zlarga yagona munosabat muallifi O‘tkir Bazarov ismli foydanuvchi “Bolani shashtidan qaytarmang” – deya tarafkashlik qiladi. [8.]

Omon Matjon she‘rlari ichida qo‘shiq sifatida juda mashhurlaridan biri bir vaqtning o‘zida uch zabardast san‘atkor – Ortiq Otajonov, G‘ulomjon Yoqubov, Otajon Xudoyshukurovlar tomonidan kuylangan “Umr o‘tar...” she‘ridir. Muhimi, bu she‘r bir oshiq qalbning samimiy so‘zlari, xolos. Uning barcha fazilatlari ham shu xislat atrofida birlashadi. Omon Matjon o‘zi aytganidek, (sanasi va ko‘rsatuv nomini aniq ayta olmagani va aniqlab bilmagani uchun ushbu satrlar muallifi uzr so‘raydi – M.P.) undagi “Xonlar o‘tar, taxt o‘tar”dan katta siyosiy nuqson topmoqchi bo‘lgan “hushyorlar” ham bo‘lgan o‘sha vaqtda. Vaholanki, bu satrlar shunchaki yorining “kulishlari”, “yurishlari”, “holin so‘rashlari”ni unuta olmasligiga iqror oshiqning ayroliq muddatini qiyoslaridan biri edi. Shoir samimiyati she‘rning mazmunini ham, ohangini ham boyitib, uni quyma satrlarga aylantiradi. Bir qarashda “Umr o‘tar, vaqt o‘tar, Xonlar o‘tar, taxt o‘tar”day sodda satrlarni yozishni tajribasiz qalamkash ham eplaydiganday tuyuladi. Lekin bunday satrlarni yozish mashaqqat va har kimga nasib qilmaydi. Shuning uchun mumtoz adabiyotimizda zohiran sodda, lekin zalvorli, inson shuuriga tez va oson singa oladigan bu satrlar *sahli mumtanih* – oson, lekin mumkinmas, deb nomlangan. Bu haqda Atoullloh Husaniy “sahl-i mumtanih andoq she‘ri ayturlarkim, ani aytmog‘ osonu yengil ko‘runur, ammo aningdek qilib aytmog‘ mumkin bo‘lmas yo qiyin bo‘lur” [1.274]. Haqiqatan ham, butun she‘r davomida ana shu ruh va ana uslub yetakchilik qilib, o‘quvchi ruhiyatiga yengil kirib boruvchi sara satrlar “yog‘iladi”:

Bahorda bog‘ na go‘zal,

Qor tushsa tog‘ na go‘zal,

Bu yoshlik chog‘ na go‘zal.

Lekin hech qachon chiqmas yodimdan



SCIENCE TIME

So‘zsiz qarashlaring, holim so‘rashlaring.

Oy chiqar goh zaxoli,

Do‘stlar ko‘pdir vafoli,

Hayot shundan safoli –

Lekin hech qachon chiqmas yodimdan

Sekin so‘zlashlaring,

Pinhon izlashlaring...

Shu tarzda shoirning “Qo‘shiq” (Miriya o‘xshatma) she‘rida ham xuddi shu ruhni ko‘ramiz:

Nechun yuzung so‘lg‘undur,

Ko‘zing yosha to‘lg‘undur.

Ne bo‘lg‘onin aytmasang,

Bilmadim, ne bo‘lg‘umdur...

XULOSA.

Xulosa shuki, sahli mumtanih Omon Matjon she‘rlarining qo‘shiq sifatida kuylanib, xalq qalbiga kirib borishining yagona sababi yoki omili emas. Bu borada yana bir muhim jihat shoir she‘rlarini qo‘shiq qilib kuylagan san‘atkorlarning nazmga bo‘lgan hassos va oqilona nigohidir. Masalan, shoirning 1986 yilda yozilgan bir she‘ri bayon uslubi bilan ham, ohangi bilan ham qo‘shiq uchun mo‘ljallanmagani tayin. Bunga ushbu she‘rning o‘z muallifi tomonidan o‘qilgan audiovariantini tinglab ham iqror bo‘lamiz*.

Umuman olganda, Omon Matjon ijod namunalari nafaqat she‘r bo‘lib, balki qo‘shiq bo‘lib ham xalqimiz qalbidan munosib o‘rin olgan.

* Omon Matjon ijodi telegram kanali materiallaridan. Deklamatsiya davomiyligi 8:56 daqika.



SCIENCE TIME

ADABIYOTLAR:

1. Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (Аруз вази ва бадийи воситалар ҳақида). Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981
2. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляти. Тошкент. “Адиб” нашриёти, 2012.
3. Омон Матжон. Минг бир ёғду. Тошкент. Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
4. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
5. Ёзувчи-шоирнинг миссияси яхши ёзишдир // "Hurriyat" газетаси 21 март (№13); <https://telegra.ph/Yozuvchining-shoirning-missiyasi-yahshi-yozishdir-03-26>
6. Мамадалиева З. Қўшиқчи ва шоир // Ижод олами. 2018, №3.
7. Қуронов Д. Шеърлариди тупроқ иси бор // Шарқ юлдузи.- 2014.- №2. – Б. 112
8. <https://www.youtube.com/watch?v=5K8WBcJH4bY>. Матн орфографик тахрирда берилди.